


**“TASDIQLAYMAN”**  
**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Kambag‘allikni qisqartirish**  
**va bandlik vazirligi**  
**Jamoatchilik kengashi raisi**

  
**B. Umurzakov**  
2024-yil 17-iyul

**O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi**  
**Jamoatchilik kengashi yig‘ilishi**  
**Bayoni № 4**

2024-yil 17-iyul

Toshkent shahri

**Raislik qildi**

**B. Umurzakov** - Jamoatchilik kengashi raisi

**Ishtirok etdi:**

Jamoatchilik kengashi a‘zolari, vazirlik markaziy  
apparati tuzilma rahbarlari (ro‘yxat bo‘yicha)

**KUN TARTIBI:**

**2024-yilning birinchi yarim yilligida bandlik bo‘limlariga**  
**murojaat qilgan shaxslarni ishga joylashtirishga ko‘maklashish**  
**bo‘yicha ko‘rsatilayotgan xizmatlar holati to‘g‘risida**

---

*(Umurzakov, Hayitov, Qadirov, To‘rabekov, Abdukarimov, Umarova, Qalandarov.)*

Yig‘ilishni O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Jamoatchilik Kengashi raisi B. Umurzakov ochib berdi va jamoatchilik kengashi a‘zolarini kun tartibiga qo‘yilgan masala bilan tanishtirdi.

Yig‘ilish kun tartibidagi masala yuzasidan, vazirlik markaziy apparati Aholi bandligi departamenti boshlig‘i M. Muxammadiyevning axboroti tinglandi.

Jumladan, Farmon va Davlat dasturi bilan vazirlik zimmasiga jami **29 ta**, shundan, asosiy ijrochi sifatida **14 ta** va ham ijrochi sifatida 13 ta bandeda topshiriqlar berilgan.

**Joriy yilning 1-yarim yilligida vazirlik asosiy ijrochi sifatida belgilangan 6 ta band to‘liq bajarildi. Xususan, aholini daromadli mehnat bilan band qilish,**

ijtimoiy sug'urta tizimini takomillashtirish doirasida **2 ta me'yoriy-huquqiy hujjat** loyihasi ishlab chiqildi.

Shu bilan birga, joriy yilning 6 oyida **4 ta amaliy chora-tadbirlar** bajarildi. Xususan, xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida hududlardagi 14 ta "Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari"da SMM, mobil grafika, IT, veb dizayner kabi zamonaviy kasblar bo'yicha o'qitish yo'lga qo'yildi.

Ushbu markazlarda joriy yilda **89 ming nafar xotin-qizni kasb-hunarga va tadbirkorlikka, 50 ming nafar xotin-qizni IT yo'nalishida o'qitish bo'yicha** rejalar ishlab chiqildi.

Mazkur markazlarda **15 ta** yo'nalishda ikki oygacha bo'lgan o'quv kurslari tashkil etilib, 6 oyda jami **44 ming nafar ayollar kasb-hunarga o'qitildi**.

Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan markazlarning o'qitish faoliyati bilan bog'liq **3,8 mlrd so'mlik xarajatlari qoplab berildi**.

Belgilangan topshiriqqa asosan joriy yilning aprel oyida **"Ishsiz va ishga joylashtirishga muhtoj aholining va norasmiy bandlarning manzilli ro'yxatini shakllantirish uslubiyoti"** ishlab chiqildi.

Aholi bandligi dasturini shakllantirish va ijrosini elektron axborot tizimi orqali onlayn monitoring qilib borish maqsadida vazirlikning **"yangiish.mehnat.uz"elektron platformasi** ishga tushirildi. Platformada tashkil etiladigan ish o'rinlari hisobini loyihalar kesimida onlayn kuzatib borish, yaratilgan ish o'rinlarining haqqoniyligini soliq organlari orqali monitoring qilib borish imkoniyati yaratildi.

Platformada shakllantirilgan ma'lumotlarga ko'ra, joriy yilning **yanvar-iyun oylarida 2,9 mln (rejaga nisbatan 127%) aholining daromadli ish bilan ta'minlanganligi soliq organlaridan ro'yxatdan o'tkazildi**. jumladan:

- xizmat ko'rsatish sohasida **1 mln 274 ming nafar (130%)**;
- qishloq xo'jaligi yo'nalishida **1 mln 532 ming nafar (124%)**;
- qurilish sohasida **85 ming nafar (138%)**;
- investitsiya loyihalarini ishga tushirish orqali **49 ming (115%)** aholi yuqori daromadli ish bilan ta'minlandi.

Bundan tashqari, ijro muddati keyingi oylar va yil yakuniga qadar bo'lgan 9 ta vazifa ijrosi bo'yicha ham tizimli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, nogironligi bo'lgan shaxslarga munosib ish o'rinlari yaratish orqali ular bandligini ta'minlashni **2 barobarga oshirish belgilangan**.

Shu maqsadda, joriy yilning yanvar-iyul oylarida **14,2 ming nafar nogironligi bo'lgan shaxslar bandligiga ko'maklashildi. Qolaversa, joriy yilning 7 oyida 3 976 nafari kasb-hunarga o'qitishga jalb qilindi.**

Nogironlar bandligini ta'minlash ko'rsatkichi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,4 baravarga oshirildi.**

Xotin-qizlarni mehnat bozorida raqobatbardosh kasb-hunarlarga o'qitish orqali bandligini ta'minlashga ko'maklashish hamda ular o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish yuzasidan qo'yilgan vazifa doirasida joriy yilning 7 oyida vazirlik tasarrufidagi kasbiy ta'lim muassasalari tomonidan zarur kasbiy malakaga ega bo'lmagan **79 ming nafar xotin-qiz mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitishga jalb qilindi.**

Davlat dasturida **423 ming ishsiz aholini ishga joylashtirishga ko'maklashish vazifasi belgilangan bo'lib, joriy yilning 7 oyida Bandlik bo'limlari hamda hokim yordamchilari tomonidan jami 267 ming nafar (rejaga nisbatan 63 foiz) ishsiz yurtdoshlarimiz bo'sh ish o'rinlariga joylashtirildi.**


Shuningdek, dasturda band bo'lmagan shaxslarni, kambag'al oilalarning ishsiz a'zolari va yoshlarni **Monomarkazlar, davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish** orqali bandligiga ko'maklashish vazifasi belgilangan bo'lib, mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida vazirlik tasarrufidagi kasbiy ta'lim muassasalari tomonidan zarur kasbiy malakaga ega bo'lmagan **138 ming ishsizlar o'qishga jalb qilindi.**

Mazkur Davlat dasturi bilan, vazirlikka mamlakatda kambag'allik darajasini kamaytirish, ishsizlar, ayniqsa xotin-qizlarni mehnat bozorida raqobatbardosh kasb-hunar va xorijiy tillarga o'qitish, ishsiz aholini munosib ishga joylashtirish, mehnat migratsiyasi kabi ustuvor vazifalar yuklatilgan bo'lib, yil oxiriga qadar dasturda belgilangan vazifalarning ijrosi so'zsiz ta'minlanadi.

### **QAROR QILADI:**

1. Kun tartibidagi masala yuzasidan Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Aholi bandligi departamenti boshlig'i M.Muxammadiyevning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Jamoatchilik kengashi a'zolari tomonidan yig'ilishda aholi bandligini ta'minlash bo'yicha bildirilgan fikr-mulohazalar taklif sifatida tayyorlanib taqdim etilsin.
3. Jamoatchilik kengashining o'tkazilgan yig'ilishi vazirlikning rasmiy veb-saytida yoritilishi ta'minlansin.

**Bayonlashtiruvchi**



**J.Qalandarov**